

ОЗИҚ-ОВҚАТ ХАВФСИЗЛИГИНИ ТА’МИНЛАШДА ҚИШЛОҚ ХО’ЖАЛИК МАHSULOTLARINING О’РНИ ВА АҲАМИЯТИ

Qobilova Nilufar Xudoyshukurovna

Qarshi davlat texnika universiteti

Oziq-ovqat mahsulotlari texnologiyasi kafedrasida dotsenti

Xazratqulova Ra’no Xaydarovna

OOT-203-22 guruh talabasi

Annotatsiya: Oziq-ovqat xavfsizligi butun dunyo mamlakatlari oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biridir. Jahonda ham bugungi kunda oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirish va ularni taqsimlash bo’yicha yondashuvni mutlaqo o’zgartirish lozimdir.

Kalit so’zlar: oziq-ovqat xavfsizligi, ochlik, genofond, kanserogen, mutagen, teratogen, transgen o’simliklar.

Oziq-ovqat xavfsizligi — aholining barcha qatlamlarini sog’lom va faol hayot kechirishlari uchun jismoniy, ijtimoiy, iqtisodiy imkoniyatlarini hisobga olgan holda, ularning iste’mol ehtiyojlarini to’liq qoplash, xavfsizlik ko’rsatkich me’yorlariga muvofiqligini ta’minlash, yuqori ozuqaviy qiymatga ega oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish sharoitlarini kafolatlovchi davlatning iqtisodiy holat

Oziq-ovqat xavfsizligi global, milliy va shaxsiy darajadagi xavfsizlikning muhim tarkibiy qismidir. Jamiyat va atrof-muhit evolyutsiyasi oziq-ovqat xavfsizligi tizimiga tuzatishlar kiritadi. Agar o’tmishda tabiiy ofatlar va noqulay iqlim sharoitlari, harbiy-siyosiy hodisalar asosiy tahdid bo’lgan bo’lsa, zamonaviy sharoitda oziq-ovqat muammosining asosiy omillari iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy sabablarga bog’liq. Zamonaviy dunyoda oziq-ovqat tizimi ishlab chiqilgan bo’lib, unda quyidagi qarama-qarshilik hal qilinmagan: bir tomondan, ochlik yer yuzidagi ko’p millionlab odamlarning yillik o’limining sababidir; boshqa tomondan, bugungi kunda global oziq-ovqat ishlab chiqarish odatda oziq-ovqat ehtiyojlarini qondiradi. Shu munosabat bilan barqaror holatga erishish inson salohiyatini saqlash va barqaror rivojlanishning zarur shartidir.

BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) hamda Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga qaraganda, hozirgi vaqtda dunyoda 840 milliondan ortiq kishi to'yib ovqatlanish imkoniyatiga ega emas. Bu jahon aholisining deyarli har sakkiz nafaridan biri, deganidir. Bundan tashqari, sayyoramizda 30 foizidan ziyodi to'laqonli ravishda ovqatlanmaslik, eng asosiy mikroelement va vitaminlar yetishmasligi muammosini boshidan kechirmoqdaki, ularning barchasi oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash naqadar dolzarb masala ekanligini yaqqol ko'rsatib turibdi.

Aslida oziq-ovqat xavfsizligi juda keng tushuncha bo'lib, u, eng avvalo, aholi ehtiyojini fiziologik me'yorlarga mos ravishda iste'mol tovarlari bilan ta'minlashni nazarda tutadi.

BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti bosh direktori Joze Gratsianu da Silva o'z nutqida "O'zbekistonda oziq-ovqat dasturini amalga oshirishning muhim zaxiralari" mavzuidagi xalqaro -konferensiyada so'zlagan nutqida mamlakatimizda mazkur jabhada qo'lga kiritilayotgan yutuqlarga alohida to'xtalib, jumladan, shunday degan edi: "2000 yillarning boshlaridan bugungi kungacha O'zbekiston qishloq xo'jaligi sohasida hamda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash borasida ulkan taraqqiyotga erishdi. 2000 yildan boshlab qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi va hosildorlik muttasil oshirib kelinayotgani bunday hayratlanarli yutuqlarning bosh omilidir" degan fikr yuritildi. Darhaqiqat, O'zbekiston — qishloq xo'jaligida ko'p yillik boy tajriba va yuksak ilmiy salohiyatga ega mamlakat.

O'zbekiston o'zining oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashdan tashqari, meva-sabzavot va boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksport qilish orqali xorijiy davlatlarning oziq-ovqat ta'minotiga munosib hissa qo'shayotgani xalqaro hamjamiyat tomonidan yuksak e'tirof etilmoqda. BMT Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkilotining 2015 yil iyun oyida Italiyaning Rim shahrida bo'lib o'tgan 39-konferensiyasida Mingyillik rivojlanish maqsadlariga erishgan davlatlarni taqdirlash marosimida O'zbekiston 14 ta davlat qatorida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda erishgan mislsiz yutuqlari uchun maxsus mukofot bilan taqdirlangani fikrimiz tasdig'idir. Mamlakatimizda sabzavot, poliz, kartoshka ekinlari, shuningdek, bog' va

tokzorlar maydonlari kengaytirilishi bilan birga, ushbu tarmoqlarda ishni to'g'ri tashkil qilish orqali uning samaradorligini oshirish uchun barcha zaruriy shart-sharoit yaratib berilgan. Ya'ni dehqon va fermer xo'jaliklari, aholi tomorqalarida ekinlar ekilishi bo'yicha monitoring yuritish mexanizmi yo'lga qo'yilib, zaruriy miqdordagi urug'lik, mineral o'g'it, yonilg'i-moylash mahsulotlari, mevali daraxtlar ko'chatlari yetkazib berishning maqbul tizimiga asos solingan.

Yurtimizda oziq-ovqat mahsulotlari zaxiralari faqat ekin maydonlarini kengaytirish hisobigagina emas, balki jahonning ilg'or tajribalari, zamonaviy va intensiv agrotexnologiyalar tatbiq qilinayotgani, istiqbolli navlar yaratilib, -amaliyotga joriy qilinayotgani tufayli mustahkamlanayotir.

Keyingi yillarda dunyo bo'yicha iqlim o'zgarishi oqibatida yuzaga kelayotgan ekologik omillar seleksionerlar oldiga yangi talablarni qo'ymoqda. Ilmiy asoslangan, tajribada sinalgan, suv tanqisligi va qurg'oqchil sharoitga moslashuvchan, turli -zararkunanda va unga qarshi kasalliklarga chidamli, yuqori hosilli navlarni ko'paytirishni hayotning o'zi taqozo etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. N.Kobilova, R.Adizov, K.Madjdov. Improvement of quality and indicators wheat mixing amaranta flour . Austrian Journal of Technical and Natural Sciences, 2020.
2. Фролов В. Соя: плюсы и минусы / В. Фролов, Н. Сарбатова, О. Сычёва // Животноводство России. – 2007. – № 11. – С. 54–55;
3. Qobilova N.X, Do'stqobilova M. S. (2023). Suli donining morfologik xususiyatlari, kimyoviy tarkibi va ozuqaviy qiymat ko'rsatgichlarining tasniflanishi. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 18(8), 127–128.
4. Suvanova F., Qobilova N., Tuxtamishova G. Improvement of solvent recovery technology in oil extraction production //Science and innovation. – 2023. – Т. 2. – №. A1. – С. 209-212.

5. Кобилова Н.Х. Влияние льняной муки на реологические свойства пшеничного теста и качества хлеба/Н.Х.Кобилова, Р.Т.Адизов, К.Х.Мажидов // Экономика и социум. – 2020. - №9 (76). - С.219-22
6. Boymuradov Q., Qobilova N. X. XAVFSIZ OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI ISTE'MOLI VA GENETIK MODIFIKATSIYALANGAN ORGANIZMLAR //ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2023. – Т. 35. – №. 3. – С. 147-149.
7. N.Kobilova, R,Adizov, K.Madjdov. Improvement of quality and indicators wheat mixing amaranta flour . Austrian Journal of Technical and Natural Sciences, 2020.